
DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-11-39 Pages: 459-475

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF FREEDOM OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY AND PROBLEMS OF THEIR IMPLEMENTATION

Samandar Sharifov
Lecturer, Department of Constitutional Law
Tashkent State University of Law
Tashkent, Uzbekistan

Muhammadjon Shovkatov
Tutor, Faculty of International Law and Comparative Law
Tashkent State University of Law
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: freedom of entrepreneurial activity, constitutional guarantee, inviolability of private property, proportionality principle, economic constitution, business ombudsman, constitutional complaint, risk analysis system.

Received: 09.11.2026
Accepted: 10.11.2026
Published: 11.11.2026

Abstract: The article examines the system of guarantees of freedom of entrepreneurial activity established by the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in 2023. Using formal legal, systemic, comparative and historical legal methods, the authors show that this freedom is enshrined both as a directly applicable subjective right and as an objective principle of the economic order. The guarantees are classified into four groups: economic, normative legal, institutional and judicial, and the implementation problem specific to each group is identified. On the basis of Articles 20 and 21 of the Constitution, a four-stage proportionality test for measures restricting entrepreneurial freedom is proposed: statutory basis, legitimate aim, suitability and necessity, and proportionality in the strict sense. The experience of Germany, the Russian doctrine and Georgian investment reforms is considered. The authors propose codifying entrepreneurship legislation, enshrining the proportionality test in the Law on Guarantees of Freedom of Entrepreneurial Activity, specifying compensation rules for the taking of property, creating specialised panels in economic courts and strengthening the

enforcement of the business ombudsman's submissions.

TADBIRKORLIK FAOLIYATI ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI

Samandar Sharifov
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

Muhammadjon Shovkatov
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tyutori
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik faoliyati erkinligi, konstitutsiyaviy kafolat, xususiy mulk daxlsizligi, mutanosiblik prinsipi, iqtisodiy konstitutsiya, Biznes ombudsman, konstitutsiyaviy shikoyat, xavfni tahlil qilish tizimi.

Annotatsiya: Maqolada 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari tizimi tahlil qilinadi. Formal-yuridik, tizimli, qiyosiy-huquqiy va tarixiy-huquqiy usullar asosida ushbu erkinlik bevosita amal qiluvchi subyektiv huquq va iqtisodiy tuzumning obyektiv prinsipi sifatida mustahkamlangani ko‘rsatiladi. Kafolatlar iqtisodiy, normativ-huquqiy, institutsional va sud kafolatlari tarzida to‘rt guruhga ajratilib, har bir guruhga xos ijro muammosi aniqlanadi. Konstitutsiyaning 20 va 21-moddalari asosida tadbirkorlik erkinligini cheklovchi choralar uchun to‘rt bosqichli mutanosiblik testi taklif etiladi: qonuniy asos, qonuniy maqsad, yaroqlilik va zaruriyat, o‘lchovlilik. Germaniya tajribasi, Rossiya doktrinasi va Gruziya investitsiya islohotlari ko‘rib chiqiladi. Tadbirkorlik qonunchiligini kodifikatsiya qilish, mutanosiblik testini “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlash, mulkni olib qo‘yishda kompensatsiya qoidalarini aniqlashtirish, iqtisodiy sudlarda ixtisoslashgan hay’atlar tuzish va Biznes ombudsman taqdimnomalari ijrosini kuchaytirish taklif etiladi.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ СВОБОДЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ

Самандар Шарифов
Преподаватель кафедры конституционного права
Ташкентского государственного юридического университета
Ташкент, Узбекистан

Мухаммаджон Шовкатов
Тьютор факультета международного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0009-0008-8208-7758 (С. Шарифов)
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: свобода предпринимательской деятельности, конституционная гарантия, неприкосновенность частной собственности, принцип соразмерности, экономическая конституция, бизнес-омбудсмен, конституционная жалоба, система анализа рисков.

Аннотация: В статье анализируется система гарантий свободы предпринимательской деятельности, закреплённая в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, принятой в 2023 году. На основе формально-юридического, системного, сравнительно-правового и историко-правового методов показано, что эта свобода закреплена и как непосредственно действующее субъективное право, и как объективный принцип экономического строя. Гарантии разделены на четыре группы: экономические, нормативно-правовые, институциональные и судебные; для каждой группы выявлена своя проблема реализации. На основе статей 20 и 21 Конституции предложен четырёхэтапный тест соразмерности для мер, ограничивающих свободу предпринимательства: законное основание, легитимная цель, пригодность и необходимость, соразмерность в узком смысле. Рассмотрены опыт Германии, российская доктрина и инвестиционные реформы Грузии. Предлагается кодифицировать предпринимательское законодательство, закрепить тест соразмерности в Законе «О гарантиях свободы предпринимательской деятельности», уточнить правила компенсации при изъятии имущества, создать специализированные коллегии в экономических судах и усилить исполнение представлений бизнес-омбудсмена.

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sish, aholi bandligi va soliq tushumlarining asosiy manbalaridan biridir. Shu bois tadbirkorlik

erkinligining qay darajada kafolatlangani davlatning shaxs va mulkka munosabatini ko‘rsatuvchi muhim mezon hisoblanadi. Tadbirkor o‘z qobiliyati va mol-mulkidan iqtisodiy faoliyat uchun erkin foydalana oladigan joyda xususiy tashabbus rivojlanadi; bunday imkoniyat cheklangan joyda esa iqtisodiy faollik norasmiy sektorga ko‘chadi. Iqtisodiy konstitutsiya nazariyasi tarafdorlari shaxsning o‘z qobiliyati va mulkidan tadbirkorlik uchun erkin foydalanish huquqini konstitutsiyaviy tuzum asoslaridan biri deb biladi [1; 765-b.].

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya iqtisodiy munosabatlarga oid normalarni sezilarli darajada yangiladi. Konstitutsiyaning 65-moddasiga ko‘ra davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi; shu moddada xususiy mulkning daxlsizligi ham mustahkamlangan. 67-moddada esa davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlashi, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil tanlashga haqli ekani belgilangan [2; 65, 67-moddalar]. Konstitutsiyaning 20-moddasiga ko‘ra inson huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi, demak, ushbu normalarga tadbirkor sud va davlat organlari oldida to‘g‘ridan to‘g‘ri tayanishi mumkin.

Biroq normaning Konstitutsiya matnida mavjudligi uning amalda to‘liq ro‘yobga chiqishini anglatmaydi. Kafolatning qiymati davlat organlarining kundalik faoliyatida, sud amaliyotida va qonunosti hujjatlarida qanday aks etishi bilan o‘lchanadi. So‘nggi tadqiqotlarda konstitutsiyaviy kafolatlar bilan ularning ijrosi o‘rtasidagi tafovut hali to‘liq bartaraf etilmagani qayd etiladi [3; 263-b.], [4; 129-b.]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning to‘qqiz oyida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devoniga 10 740 dan ortiq murojaat kelib tushgan, ularning qariyb 48 foizida tadbirkorlarning buzilgan huquqlari tiklangan [5]. Bu raqam himoya institutining natijali ishlayotganini ham, tadbirkorlik erkinligiga aralashuvning oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ham ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi – yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari tizimini aniqlash, ularni amalga oshirishdagi asosiy muammolarni tahlil qilish va qonunchilikni takomillashtirish yo‘llarini taklif etish. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: tadbirkorlik erkinligi konstitutsiyaviy huquqda qanday huquqiy tabiatga ega; Konstitutsiya kafolatlarini qanday tasniflash mumkin; davlat bu erkinlikni qaysi asosda va qay darajada cheklashi mumkin; kafolatlar ijrosiga nimalar to‘sqinlik qilmoqda. Ishning yangiligi shundaki, unda yangi tahrirdagi Konstitutsiya kafolatlari to‘rt guruhdan iborat yaxlit tizim sifatida tasniflanadi, har bir guruh uchun ijro muammosi aniqlanadi hamda Konstitutsiyaning 20 va 21-

moddalaridan kelib chiquvchi, qonunda mustahkamlash mumkin bo‘lgan to‘rt bosqichli mutanosiblik testi modeli taklif etiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tadbirkorlik erkinligining konstitutsiyaviy asoslari milliy huquq fanida turli jihatlardan o‘rganilgan. E. Xurramov kafolatlarni Konstitutsiya va qonunchilikda belgilangan erkinliklar, huquqlar va majburiyatlarning yaxlit tizimi sifatida tahlil qilib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratgan [3; 262-b.]. A.D. Anarkulov va D.I. Irgashev konstitutsiyaviy islohotni iqtisodiy faoliyat erkinligini ta’minlash nuqtayi nazaridan baholab, iqtisodiy konstitutsiya tushunchasini milliy doktrinaga tatbiq etgan [1; 764–766-b.]. N. Aslonova investitsiya faoliyati doirasida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish muammolarini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan o‘rganib, qonunchilikning tarqoqligi, mulkni olib qo‘yishdagi kafolatlar va sud himoyasining ixtisoslashuvi masalalarini ko‘targan [4; 128–133-b.]. Raqamli tadbirkorlikni tartibga solish yo‘nalishlari Sh.N. Ruzinazarov va N.B. Toshkanov [6; 70-b.], Biznes ombudsman instituti esa A.M. Makhmatmurodov va J.O. Alokulov tomonidan tadqiq etilgan [7; 666-b.].

Xorijiy doktrinada N.N. Nadejin tadbirkorlik erkinligini ijtimoiy davlat prinsipi bilan bog‘liq holda [8; 12-b.], shuningdek, maxsus huquqiy rejimlar sharoitida mulkiy va tadbirkorlik huquqlarini cheklash chegaralari nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [9; 33-b.]. Iqtisodiy konstitutsiya g‘oyasining nazariy manbai V. Oyken asarlarida shakllangan Frayburg ordoliberal maktabidir [10]; ushbu maktabning normativ asoslari va uning zamonaviy talqini R. Klump va M. Vyorsdyorfer tomonidan tizimlashtirilgan [11]. Huquq va erkinliklarni cheklashning mutanosiblik testi nazariyasi R. Aleksi [12] va A. Barak [13] ishlarida batafsil ishlab chiqilgan. Biroq milliy adabiyotda yangi tahrirdagi Konstitutsiya kafolatlarini yaxlit tizim sifatida tasniflash, ularni cheklash mezonlarini Konstitutsiyaning 20 va 21-moddalari asosida aniqlashtirish va ijro muammolarini shu tasnif bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-huquqiy xarakterga ega. Formal-yuridik usul yordamida Konstitutsiyaning iqtisodiy munosabatlarga oid 19, 20, 21, 41, 42, 55, 63, 65, 66, 67, 133 va 149-moddalari mazmuni talqin qilindi. Tizimli tahlil ushbu normalarni alohida qoidalar sifatida emas, o‘zaro bog‘liq kafolatlar majmui sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy-huquqiy usul doirasida Germaniyaning iqtisodiy konstitutsiya ta’limoti va Federal Konstitutsiyaviy sud amaliyoti, Rossiya doktrinasidagi tadbirkorlik erkinligini cheklash mezonlari hamda Gruziyaning investitsiya islohotlari tajribasi o‘rganildi. Tarixiy-huquqiy usul Konstitutsiyaning 1992-yilgi va 2023-yilgi tahrirlaridagi mulkka oid qoidalarni solishtirishda qo‘llanildi.

Manbaviy asosni Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, 2022–2026-yillarda e’lon qilingan ilmiy maqolalar hamda vakolatli davlat organining rasmiy ma’lumotlari tashkil etadi. Maqolada keltirilgan miqdoriy ko‘rsatkichlar mualliflarning o‘z kuzatuvi emas, balki rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlardir. Tadqiqotning cheklovi shundaki, unda sud qarorlari empirik jihatdan umumlashtirilmagan; konstitutsiyaviy shikoyat va mutanosiblik testining sud amaliyotida qo‘llanishini miqdoriy o‘rganish keyingi tadqiqotlar vazifasi bo‘lib qoladi.

Tahlil va natijalar. *Tadbirkorlik erkinligining huquqiy tabiati.* Konstitutsiyaviy kafolat deganda Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va erkinlikning amalda ro‘yobga chiqishini ta’minlovchi shart-sharoitlar, vositalar va mexanizmlar majmui tushuniladi. Shu sababli kafolatni baholash uchun normaning o‘zini emas, u bilan bog‘liq iqtisodiy, huquqiy va institutsional tuzilmalarni ham tahlil qilish kerak.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi konstitutsiyaviy huquqda ikki jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u shaxsning subyektiv huquqi bo‘lib, har kimga qonun bilan taqiqlanmagan iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, faoliyat turi va yo‘nalishini mustaqil tanlash, mulkiga o‘z xohishicha egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkonini beradi. Konstitutsiyaning 41-moddasidagi har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli ekani haqidagi qoida, 42-moddasidagi kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi va 66-moddasidagi mulkdor vakolatlari ushbu subyektiv huquqning konstitutsiyaviy tayanchlarini tashkil etadi [2; 41, 42, 66-moddalar]. Joriy qonunchilikda tadbirkorlik faoliyati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati sifatida ta’riflanadi [14; 3-modda].

Ikkinchidan, tadbirkorlik erkinligi iqtisodiy tuzumning obyektiv prinsipi sifatida davlatning iqtisodiy siyosatiga yo‘nalish beradi. Konstitutsiyaning 65-moddasida iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi va barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda huquqiy jihatdan himoya qilinishi belgilangan [2; 65-modda]. Bunday normalar alohida shaxsga qaratilmagan bo‘lsa-da, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat uchun majburiy yo‘nalishdir va ularning hujjatlarini konstitutsiyaviylik nuqtayi nazaridan baholashda mezon bo‘ladi. E. Xurramov ham Konstitutsiyani bu sohani tartibga solishning oliy yuridik kuchga ega asosi deb baholaydi [3; 263-b.].

65-moddada iqtisodiy faoliyat erkinligi, tadbirkorlik erkinligi va mehnat qilish erkinligi alohida sanab o‘tilgan. Fikrimizcha, bu tushunchalar umumiy va xususiy nisbatida turadi. Iqtisodiy faoliyat erkinligi eng keng tushuncha bo‘lib, ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste’mol bilan bog‘liq har qanday qonuniy faoliyatni, jumladan, foyda olishni maqsad qilmagan faoliyatni ham qamrab oladi. Tadbirkorlik erkinligi uning tarkibiy qismi bo‘lib, tavakkal, mustaqillik va daromadga yo‘naltirilganlik belgilari bilan ajralib turadi. Mehnat qilish erkinligi shaxsning o‘z

mehnat qobiliyatini erkin tasarruf etishini anglatadi va tadbirkorlik erkinligi bilan yakka tartibdagi tadbirkorlik hamda o‘zini o‘zi band qilish shakllarida kesishadi. Bu farqlashning amaliy ahamiyati shundaki, cheklovni baholayotgan sud aynan qaysi erkinlikka aralashuv sodir bo‘lganini aniqlashi kerak.

Mazkur ikki jihatning uyg‘unligi xorij huquq fanida “iqtisodiy konstitutsiya” tushunchasi orqali izohlanadi. Bu ta’limot Germaniyada Frayburg ordoliberal maktabi doirasida shakllangan bo‘lib, unga ko‘ra konstitutsiya siyosiy hokimiyat tuzilishi bilan birga iqtisodiy tartibning asosiy qoidalarini ham belgilaydi [10], [11]. A.D. Anarkulov va D.I. Irgashevning ta’kidlashicha, iqtisodiy konstitutsiya iqtisodiy tartib g‘oyasini, davlat aralashuvining chegaralarini va ijtimoiy davlatning davlat faoliyatiga qo‘yadigan talablarini o‘z ichiga oladi [1; 766-b.]. Shu nuqtayi nazardan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning iqtisodiy asoslarga bag‘ishlangan normalari O‘zbekiston iqtisodiy konstitutsiyasining o‘zagini tashkil etadi.

Tadbirkorlik erkinligi tarkibida salbiy va ijobiy jihatlarni ham farqlash kerak. Salbiy jihat davlatning tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashmaslik majburiyatini anglatadi va tadbirkorni ortiqcha tekshiruvlar, qonunda nazarda tutilmagan talablar hamda mulkdan o‘zboshimchalik bilan mahrum etishdan himoya qiladi. Ijobiy jihat davlatning qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, iqtisodiy makon birligini ta’minlash va monopol faoliyatni cheklash majburiyatida ifodalanadi [2; 67-modda]. N.N. Nadejin ijtimoiy davlat iqtisodiy erkinlikni bekor qilmasligini, balki undan mas’uliyatli foydalanishning me’yoriy modelini belgilashini asoslaydi; muallifning fikricha, ijtimoiy davlat prinsipi tadbirkorlik uchun ijobiy shart bo‘lish bilan birga uni cheklashning joizligini baholash mezoni hamdir [8; 12-b.]. Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb e’lon qilinganini inobatga olsak, bu xulosa milliy huquq tizimi uchun ham ahamiyatli.

Yangi tahrir bu borada avvalgi tahrirdan mazmunan farq qiladi. 1992-yilgi tahrirda “Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir” degan qoida mavjud edi [1; 765-b.]. Yangi tahrirda “Xususiy mulk daxlsizdir” degan qisqa qoida mustahkamlanib, mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilandi [2; 65-modda]. Bu o‘zgarish mulk huquqini himoya qilishda hal qiluvchi so‘zni sud hokimiyatiga berdi va tadbirkorlik erkinligining moddiy asosini mustahkamladi.

Kafolatlar tasnifi. Konstitutsiya normalarini tizimli tahlil qilish tadbirkorlik erkinligi kafolatlarini to‘rt guruhga ajratish imkonini beradi. Bu tasnif shartli bo‘lsa-da, har bir guruhning o‘z amalga oshirish mexanizmi va muammolari borligi sababli amaliy ahamiyatga ega.

Birinchi guruhni iqtisodiy kafolatlar tashkil etadi. Ular mulk shakllarining xilma-xilligi va tengligi, bozor munosabatlari va halol raqobatni rivojlantirish, iqtisodiy makon birligi hamda

tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishini qamrab oladi [2; 65, 67-moddalar]. Iqtisodiy makon birligi hududiy darajada qabul qilinadigan qarorlar orqali bozorga kirishda sun’iy to‘siqlar yaratilishining oldini oladi: muayyan hudud ishlab chiqaruvchilariga asossiz imtiyoz beruvchi yoki boshqa hudud tadbirkorlarini cheklovchi mahalliy qarorlar ushbu qoidaga zid hisoblanadi. Mulk shakllarining tengligi esa davlatning bir vaqtning o‘zida bozorni tartibga soluvchi va davlat ishtirokidagi korxonalar orqali bozor ishtirokchisi bo‘lishi bilan bog‘liq masalani hal qilishga xizmat qiladi. Davlat ishtirokidagi korxonalarga soliq, kredit, yer ajratish yoki davlat xaridlari sohasida xususiy tadbirkorlarga berilmaydigan afzalliklar berilishi teng huquqiy himoya prinsipiga mos kelmaydi. Shu sababli raqobat betarafligi, ya’ni davlat va xususiy sektor uchun bir xil bozor shartlari tamoyilini 65-moddadan kelib chiquvchi talab sifatida talqin qilish lozim.

Ikkinchi guruh normativ-huquqiy kafolatlardan iborat bo‘lib, ular davlatning tartibga solish vakolatini muayyan qoidalar bilan chegaralaydi. Konstitutsiyaning 19-moddasiga ko‘ra imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart. 21-moddaga ko‘ra hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas, inson huquq va erkinliklari esa faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin [2; 19, 21-moddalar]. Soliq sohasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va yig‘imlarni to‘lashi, soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda respublika hududida yagona soliq tizimi amal qilishi mustahkamlangan [2; 63, 149-moddalar].

Bu guruhda Konstitutsiyaning 20-moddasi markaziy o‘rin tutadi. Unda davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilangan [2; 20-modda]. Soliq, litsenziyalash va nazorat sohasidagi nizolarning katta qismi aynan me’yorning noaniqligidan kelib chiqqani uchun bu qoida tadbirkorlik munosabatlarida alohida ahamiyatga ega. Normada “inson” atamasi qo‘llangani sababli uning yuridik shaxs shaklidagi tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilishi munozarali bo‘lib qolmoqda. Fikrimizcha, qoidaning maqsadi kuchsizroq tarafni davlat hokimiyatining ustun mavqeidan himoya qilish ekanini inobatga olib, uni yuridik shaxslarga ham tatbiq etish lozim, chunki yuridik shaxs ortida uning ta’sischilari va xodimlarining huquqlari turadi.

Uchinchi guruhni institutsional kafolatlar tashkil etadi. Ular qatoriga monopoliyaga qarshi organ, Konstitutsiyaviy sud hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik

subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes ombudsman) kiradi. Monopoliyaga qarshi organ rahbarini Prezident taqdimiga binoan Senat saylashining Konstitutsiyada belgilangani bu institutga konstitutsiyaviy maqom berilganini ko‘rsatadi [2; 95, 109-moddalar]. Biznes ombudsman 2017-yilda qabul qilingan maxsus qonun asosida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishini ta’minlaydi [7; 667-b.]. Qonunga ko‘ra u tekshiruvlarning qonuniyligini o‘rganadi, mansabdor shaxslarga yozma ogohlantirish beradi, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida majburiy taqdimnoma kiritadi va tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlab davlat boji to‘lamasdan sudga murojaat qiladi [15; 8-modda].

To‘rtinchi guruh sud kafolatlaridan iborat. Konstitutsiyaning 55-moddasiga ko‘ra har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi; davlat organlarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi [2; 55-modda]. 133-moddada fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, muayyan ishda o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli ekani mustahkamlangan [2; 133-modda]. Ushbu institutning tartib-taomillari 2026-yil 14-oktyabrda qabul qilingan yangi “Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun bilan tartibga solinadi [16]. Konstitutsiyaviy shikoyat tadbirkorga individual nizo doirasidan chiqib, uning erkinligini cheklayotgan qonunning o‘zini bahslashish imkonini beradi. Kafolatlar tizimi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tadbirkorlik faoliyati erkinligi konstitutsiyaviy kafolatlarining tasnifi (mualliflar ishlanmasi)

Kafolat turi	Konstitutsiyaviy asos	Asosiy mazmuni	Amalga oshirishdagi muammo
Iqtisodiy	65, 67-moddalar	mulk shakllarining tengligi, halol raqobat, iqtisodiy makon birligi, tovar, xizmat, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi	hududiy cheklovlar, raqobat betarafligiga putur yetkazuvchi imtiyozlar
Normativ-huquqiy	19, 20, 21, 63, 149-moddalar	cheklov va majburiyatlarning faqat qonun bilan belgilanishi, mutanosiblik, noaniqlikning shaxs foydasiga talqin qilinishi	muhim kafolatlarning qonunosti hujjatlarida mustahkamlanishi, qonunchilikning tez-tez o‘zgarishi

Kafolat turi	Konstitutsiyaviy asos	Asosiy mazmuni	Amalga oshirishdagi muammo
Institutsional	95, 109, 133-moddalar; Biznes ombudsman to‘g‘risidagi Qonun	monopoliyaga qarshi organ, Biznes ombudsman, Konstitutsiyaviy sud	taqdimnomalar ijrosini nazorat qilish va bajarmaslik oqibatlarini aniqlashtirish zarurati
Sud	55, 65, 133-moddalar	sud himoyasi, zararni davlat tomonidan qoplash, mulkdan faqat sud qarori bilan mahrum etish, konstitutsiyaviy shikoyat	nizolarning uzoq ko‘rilishi, sud hujjatlari ijrosi, ixtisoslashuvning yetarli emasligi

Cheklashning konstitutsiyaviy chegaralari. Tadbirkorlik erkinligi mutlaq emas. Konstitutsiyaning 66-moddasiga ko‘ra mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak, 67-moddasiga ko‘ra esa monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi [2; 66, 67-moddalar]. Demak, masala cheklovning mavjudligida emas, uning chegarasida: davlat qaysi asosda, qanday shaklda va qay darajada aralashishi mumkin.

Konstitutsiyaning 20 va 21-moddalarini birgalikda talqin qilish cheklovni baholashning bosqichli mezonini shakllantirishga imkon beradi. Birinchi bosqichda cheklovning qonun bilan belgilanganligi tekshiriladi: hukumat qarori, idoraviy hujjat yoki mahalliy hokimiyat qarori bilan tadbirkorga qonunda nazarda tutilmagan majburiyat yuklash 21-moddaga zid. Ikkinchi bosqichda cheklov Konstitutsiyada sanab o‘tilgan maqsadlardan biriga xizmat qilishi aniqlanadi. Uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarda choraning zarurligi va o‘lchovliligi baholanadi. Bunday tuzilma R. Aleksi va A. Barak tomonidan asoslangan mutanosiblik testining umumiy mantiqiga mos keladi [12], [13]. Taklif etilayotgan model 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Tadbirkorlik erkinligini cheklovchi choralar uchun mutanosiblik testi modeli (mualliflar taklifi)

Bosqich	Tekshiriladigan savol	Konstitutsiyaviy asos	Salbiy javob oqibati
1. Qonuniy asos	Cheklov qonunda aniq, oldindan ma’lum va bir ma’noli belgilanganmi?	21-modda (1, 3-qismlar)	cheklov qo‘llanilmaydi; noaniqlik tadbirkor foydasiga talqin etiladi (20-modda)
2. Qonuniy maqsad	Chora 21-moddada sanalgan maqsadlardan biriga xizmat qiladimi?	21-modda	chora konstitutsiyaga zid deb topiladi
3. Yaroqlilik va zaruriyat	Chora maqsadga erishishga qodirmi va tadbirkor uchun yengilroq muqobil yo‘qmi?	20-modda	yengilroq muqobil tanlanishi lozim

Bosqich	Tekshiriladigan savol	Konstitutsiyaviy asos	Salbiy javob oqibati
4. O‘lchovlilik	Tadbirkorga yuklanadigan yuk himoya qilinayotgan manfaatga mutanosibmi, amal qilish muddati va kompensatsiya nazarda tutilganmi?	20, 55, 65-moddalar	chora cheklanadi, muddat belgilanadi yoki zarar qoplanadi

Ushbu testning izchil qo‘llanishi birinchi navbatda konstitutsiyaviy nazorat amaliyotiga bog‘liq. Konstitutsiyaviy sud qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va mahalliy hokimiyat organlari qarorlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi [2; 133-modda]. Agar sud o‘z qarorlarida cheklovning qonuniy maqsadi, zarurligi va o‘lchovliligini alohida-alohida asoslab bersa, bu yondashuv iqtisodiy, ma’muriy va umumiy yurisdiksiya sudlari uchun namunaga aylanadi. Shu ma’noda konstitutsiyaviy nazorat tadbirkorlik erkinligining himoya vositasi bo‘lish bilan birga uning mazmunini aniqlashtiruvchi manba hamdir.

Rossiya doktrinasida ham shunga yaqin yondashuv rivojlanmoqda. N.N. Nadejin maxsus huquqiy rejimlar sharoitida mulkiy va tadbirkorlik huquqlarini cheklash faqat qonuniy asos, vaqt chegarasi, mazmuniy aniqlik, tabaqalashtirish, sud nazorati va ortiqcha yukni qoplash mexanizmi mavjud bo‘lgandagina joiz ekanini asoslaydi [9; 33-b.]. Bu mezonlar O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli, chunki tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir qiluvchi ayrim talablar qonunosti hujjatlari bilan joriy etiladi va ularda amal qilish muddati har doim ham ko‘rsatilmaydi. Cheklov chegarasi faqat ommaviy huquq doirasida hal etilmaydi: muallif konstitutsiyaviy muvozanatning xususiy huquqiy shakllari sifatida vijdonlilik prinsipi, shartnoma erkinligining chegaralari, kuchsiz tarafni himoya qilish va iqtisodiy hukmronlikni suiiste’mol qilishni taqiqlashni ko‘rsatadi [8; 12-b.]. Konstitutsiyaning 65-moddasida iste’molchilar huquqlari ustuvorligining qayd etilgani ham aynan shu muvozanatga ishora qiladi.

Kafolatlarni amalga oshirishdagi muammolar. Tahlil kafolatlar ijrosiga ta’sir ko‘rsatayotgan o‘zaro bog‘liq oltita muammoni aniqlash imkonini berdi.

Birinchi muammo qonunchilikning tarqoqligi bilan bog‘liq. Tadbirkorlik munosabatlari “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [14] bilan bir qatorda ko‘plab qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi. N. Aslonova investitsiya sohasida yagona kodifikatsiyalangan hujjatning yo‘qligi tartibga solishning parchalanishiga, qonunlarning bir-birini takrorlashi esa ularga tez-tez o‘zgartish kiritilishiga olib kelayotganini qayd etadi [4; 129–130-b.]. Muhim kafolatlarning bir qismi qonunda emas, farmon va qarorlarda mustahkamlangani Konstitutsiyaning 21-moddasidagi talab nuqtayi nazaridan ularni qonun darajasiga ko‘tarishni taqozo etadi. Soliq sohasida ham tadbirkor uchun stavka miqdori

bilan bir qatorda qoidalarning barqarorligi va oldindan ma’lumligi muhim. Shu bois soliq yukini oshiruvchi o‘zgartishlarni yetarli o‘tish davri bilan joriy etish va ularga orqaga qaytish kuchi berilmasligini qonunda aniq belgilash huquqiy aniqlik prinsipidan kelib chiquvchi talabdir.

Ikkinchi muammo nazorat va tekshiruv faoliyatini mutanosiblik prinsipiga to‘liq moslashtirish bilan bog‘liq. Bu yo‘nalishda Prezidentning 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmoni muhim qadam bo‘ldi. Unga ko‘ra 2025-yil 1-yanvardan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi barcha tekshiruvlar “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatga olinib, Biznes ombudsmanni xabardor qilgan holda o‘tkaziladi; “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida subyektlar huquqbuzarlik xavfiga ko‘ra past, o‘rta va yuqori darajalarga tasniflanadi, xavf darajasi past bo‘lgan subyektlar faoliyatida esa tekshiruvlar o‘tkazilmaydi [17]. Davlat aralashuvining jadalligi xavf darajasiga bog‘langani Konstitutsiyaning 20-moddasidagi mutanosiblik prinsipining amaliy ifodasidir. Shu bilan birga, Farmonda hayot va sog‘liqqa, jamoat xavfsizligiga, davlat manfaatlariga yoki atrof-muhitga tahdidning tezkor oldini olish zarur bo‘lgan hollarda tekshiruvni boshlab, ombudsmanni 24 soat ichida xabardor qilish imkoniyati nazarda tutilgan [17]. Bunday istisnolarning asoslari aniq va tor talqin qilinishi umumiy qoidaning samarasini saqlashning sharti hisoblanadi. Vakolatli organ ma’lumotlarida asossiz tekshiruvlar va yer huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazishdagi ortiqcha byurokratik bosqichlar ombudsman aralashuvi bilan hal etilayotgan masalalar sifatida qayd etilgan [5].

Uchinchi muammo mulk huquqi kafolatlarining ijrosi bilan bog‘liq. Konstitutsiyada mulkdan faqat sud qarori asosida mahrum etish qoidasi mustahkamlangan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar yer uchastkalari va mol-mulkni jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishda kompensatsiyani o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda to‘lash bilan bog‘liq masalalar uchrab turishini qayd etadi [4; 130-b.]. Bunday holatlar tadbirkorning uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatini toraytiradi. Bir korxonaning hisob raqamidan boshqa korxonaning soliq qarzi uchun mablag‘ undirilgani va ombudsman aralashuvidan so‘ng mablag‘ to‘liq qaytarilgani haqidagi holat ham [5] mulk daxlsizligi prinsipini ma’muriy amaliyotga to‘liq singdirish zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi muammo sud himoyasining samaradorligi bilan bog‘liq. Investitsiya va tadbirkorlik nizolarining uzoq ko‘rilishi, sud hujjatlari ijrosi va sudyalarning investitsiya huquqi bo‘yicha ixtisoslashuvi masalalari adabiyotda qayd etilgan [4; 130–132-b.]. Konstitutsiyaviy shikoyat instituti nisbatan yangi bo‘lib, uni tadbirkorlar tomonidan qo‘llash amaliyoti endi shakllanmoqda. Shikoyat berish uchun barcha sud vositalaridan foydalanib bo‘linishi talabi himoyaning kechikishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, 55-moddada mustahkamlangan davlat organlari yetkazgan zararni davlat tomonidan qoplash huquqi aniq protsessual mexanizmni talab qiladi.

Beshinchi muammo institutsional himoya hujjatlarining ijrosi bilan bog‘liq. Biznes ombudsman tadbirkorlarning murojaatlarini qabul qiladi va davlat organlari bilan tadbirkorlar o‘rtasida vositachilik qiladi [7; 668-b.]; uning taqdimnomalari qonunga ko‘ra majburiy hisoblanadi [15; 8-modda]. Murojaatlarning qariyb yarmida huquqlar tiklanayotgani [5] institutning natijadorligini ko‘rsatadi. Taqdimnomani belgilangan muddatda bajarmaslik uchun mansabdor shaxs javobgarligi va ijroni monitoring qilish tartibini yanada aniqlashtirish himoya natijasini barqarorlashtiradi. Bundan tashqari, tadbirkorlik erkinligini cheklovchi normativ hujjatlar bo‘yicha ombudsman bilan Konstitutsiyaviy sud o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish foydali bo‘lar edi.

Oltinchi muammo raqamli tadbirkorlikni tartibga solishdagi bo‘shliqlar bilan bog‘liq. Elektron tijorat, raqamli platformalar va smart-shartnomalar tadbirkorlik erkinligini amalga oshirishning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Sh.N. Ruzinazarov va N.B. Toshkanov huquqiy tushunchalarni aniqlashtirish, raqamli platforma operatorining javobgarligini belgilash, elektron bitim va smart-shartnomalarning fuqarolik-huquqiy rejimini mustahkamlash hamda startaplar va raqamli eksport uchun moslashuvchan rejimlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi [6; 70-b.]. Konstitutsiyaviy nuqtayi nazardan raqamli muhitda bozorga kirish erkinligiga yirik platformalarning bozordagi mavqei ham ta’sir qiladi. Shu bois 67-moddadagi monopol faoliyatni cheklash qoidasini raqamli bozorlarga tatbiq etish uchun raqobat qonunchiligida platformalarning hukmron mavqeini baholash mezonlari belgilanishi lozim.

Muhokama. Xorijiy tajriba tadbirkorlik erkinligi konstitutsiyada alohida huquq sifatida yozilmagan holda ham kuchli himoyaga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Germaniya Asosiy qonunining 12-moddasidagi kasb erkinligi va 14-moddasidagi mulk kafolati Federal Konstitutsiyaviy sud amaliyotida tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning asosiga aylangan. A.D. Anarkulov va D.I. Irgashevning qayd etishicha, Bavariya konstitutsiyasi federal Asosiy qonundan farqli ravishda monopoliya va kartellarni cheklovchi qoidalarni bevosita o‘z ichiga oladi [1; 767-b.]. O‘zbekiston Konstitutsiyasi tadbirkorlik erkinligini ham, monopol faoliyatni cheklashni ham bevosita mustahkamlagani bilan bu borada aniqroq modelni taklif etadi.

Federal Konstitutsiyaviy sudning 1958-yilgi dorixonalar ishi bo‘yicha qarorida shakllangan bosqichlar nazariyasi ham e’tiborga loyiq. Unga ko‘ra kasbiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga oid cheklovlar umumiy manfaatning oqilona mulohazalari bilan oqlanishi mumkin; faoliyatga kirish uchun shaxsga bog‘liq shartlar muhimroq jamoat manfaatini himoya qilish zarurati bilan; shaxsga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv shartlar esa faqat o‘ta muhim jamoat manfaatiga tahdid soluvchi jiddiy xavfning oldini olish uchungina joriy etilishi mumkin [18]. Bu yondashuvdan cheklov qanchalik chuqur bo‘lsa, uni asoslash talabi shunchalik qat’iy bo‘lishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. O‘zbekiston sharoitida bu mantiqni litsenziyalash va ruxsat

berish tartiblarini baholashda qo‘llash mumkin: faoliyat tartibiga oid talablar nisbatan keng doirada belgilanishi mumkin, bozorga kirishni miqdoriy jihatdan cheklovchi choralar esa faqat alohida asoslangan hollarda qo‘llanishi lozim.

Gruziya tajribasi kafolatlarni amalga oshirish mexanizmlari nuqtayi nazaridan qiziqarli. N. Aslonovaning tahliliga ko‘ra, Gruziya 2000-yillar boshida investitsiya qoidalarini uyg‘unlashtiruvchi yagona hujjat qabul qilgan, mahalliy va xorijiy investorlarga teng munosabatni kafolatlagan, ixtisoslashgan tijorat sudlarini tashkil etgan, litsenziyalash tartiblarini soddalashtirib, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazgan [4; 131-b.]. Bundan kelib chiqadigan saboq shuki, konstitutsiyaviy kafolatlar soddalashtirilgan tartib-taomillar va ixtisoslashgan sud himoyasi bilan birga joriy etilgandagina kutilgan natijani beradi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga oid qonunchilikni kodifikatsiya qilish, jumladan, xavf tahliliga asoslangan nazorat tizimi va tekshiruvlarni Biznes ombudsmanni xabardor qilgan holda o‘tkazish tartibini qonun darajasiga ko‘tarish maqsadga muvofiq; bu Konstitutsiyaning 21-moddasi talabiga to‘liq javob beradi. Ikkinchidan, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda 2-jadvalda keltirilgan mutanosiblik testi mezonlarini mustahkamlash, tadbirkorlarga yangi majburiyat yuklovchi normativ hujjat loyihalari uchun tartibga solish ta’sirini baholashni majburiy qilish va cheklovning amal qilish muddatini ko‘rsatish talabini belgilash taklif etiladi. Uchinchidan, 20-moddadagi noaniqliklarni inson foydasiga talqin qilish qoidasining yuridik shaxslarga tatbiq etilishini Oliy sud Plenumining tushuntirishlari orqali aniqlashtirish soliq va ma’muriy nizolarda yagona amaliyot shakllanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, mulkni olib qo‘yishda bozor qiymatini mustaqil baholash, kompensatsiyani oldindan to‘lash va olib qo‘yish asoslarini sudda to‘liq tekshirish tartibini qonunda batafsil belgilash lozim; N. Aslonova ham olib qo‘yishga qarshi kafolatlarni kuchaytirish va bozor qiymatidagi kompensatsiyani ta’minlashni taklif qiladi [4; 133-b.]. Beshinchidan, iqtisodiy sudlarda investitsiya va tadbirkorlik nizolari bo‘yicha ixtisoslashgan hay’atlar tashkil etish va sudyalar malakasini oshirish [4; 132-b.], shuningdek, Biznes ombudsman taqdimnomalarini bajarmaslik uchun javobgarlikni aniqlashtirish zarur. Oltinchidan, raqamli platformalarga nisbatan raqobat qonunchiligida hukmron mavqeni baholashning maxsus mezonlarini joriy etish va platformaga kirishda kamsitishni taqiqlash orqali konstitutsiyaviy kafolatlarni raqamli bozorlarga tatbiq etish lozim.

Bu takliflar bir-biriga bog‘liq: kodifikatsiya kafolatlarning barqarorligini, mutanosiblik testi va noaniqlikni shaxs foydasiga talqin qilish qoidasi ularning mazmunini, ixtisoslashgan sud himoyasi va ombudsman taqdimnomalari ijrosining kuchaytirilishi esa ularning ijrosini

ta’minlaydi. Ularning faqat bir qismi amalga oshirilsa, tizimning eng zaif bo‘g‘ini umumiy natijani belgilab qolishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot yangi tahrirdagi Konstitutsiya tadbirkorlik faoliyati erkinligini bevosita amal qiluvchi subyektiv huquq va iqtisodiy tuzumning obyektiv prinsipi sifatida mustahkamlaganini ko‘rsatdi. Xususiy mulkning daxlsizligi, mulkdan faqat sud qarori bilan mahrum etish, mutanosiblik prinsipi, qonunchilikdagi noaniqliklarni shaxs foydasiga talqin qilish va konstitutsiyaviy shikoyat instituti kafolatlar tizimining yangi unsurlaridir. Bu kafolatlarni iqtisodiy, normativ-huquqiy, institutsional va sud kafolatlari tarzida to‘rt guruhga ajratish har bir guruhning o‘ziga xos ijro muammosini aniqlash imkonini beradi.

Kafolatlarni amalga oshirishda qonunchilikning tarqoqligi, nazorat faoliyatini mutanosiblik prinsipiga to‘liq moslashtirish, mulkni olib qo‘yishdagi kompensatsiya, sud himoyasining tezkorligi, ombudsman taqdimnomalari ijrosi va raqamli bozorlarni tartibga solish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ularning umumiy sababi konstitutsiyaviy normalar bilan ularni amalga oshiruvchi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Uni bartaraf etish uchun tadbirkorlik qonunchiligini kodifikatsiya qilish, to‘rt bosqichli mutanosiblik testini qonunda mustahkamlash, mulkni olib qo‘yish tartibini aniqlashtirish, ixtisoslashgan sud himoyasini rivojlantirish va Biznes ombudsman taqdimnomalari ijrosini kuchaytirish taklif etiladi. Keyingi tadqiqotlarda Konstitutsiyaviy sud va iqtisodiy sudlarning tadbirkorlik erkinligiga oid qarorlarini mutanosiblik testi mezonlari asosida umumlashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anarkulov A.D., Irgashev D.I. Konstitutsiyaviy islohotlar: iqtisodiy faoliyat erkinligini ta’minlashdagi muhim jihatlar // Science and Innovation. – 2022. – Vol. 1, № 8. – B. 764–768. – DOI: 10.5281/zenodo.7437965

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/6445145

3. Xurramov E. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari: tizimli yuridik tahlil // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2025. – Vol. 6, Special Issue 3/S. – B. 262–268. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss3/S-pp262-268

4. Aslonova N. Investitsiya faoliyati doirasida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish masalalari: konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2025. – Vol. 6, Special Issue 2/S. – B. 127–134. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp127-134

5. Boboyeva G. Biznes daxlsizligi – iqtisodiy yuksalish garovi: to‘siqlar qanday bartaraf etilmoqda? // O‘zbekiston milliy axborot agentligi (UzA). – 2026. – 5-noyabr. – URL: https://uza.uz/ar/posts/biznes-daxlsizligi-iqtisodiy-yuksalish-garovi-tosiqlar-qanday-bartaraf-etilmoqda_933188

6. Ruzinazarov Sh.N., Toshkanov N.B. Raqamli tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish tendensiyalari // Yurisprudensiya. – 2026. – Vol. 6, № 4. – B. 70–76

7. Makhmatmurodov A.M., Alokulov J.O. Biznes ombudsman // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – Vol. 6, № 3. – B. 666–670

8. Надежин Н.Н. Принцип социального государства и свобода предпринимательства: проблемы конституционного баланса // Юрист. – 2026. – № 7. – С. 12–16. – DOI: 10.18572/1812-3929-2026-7-12-16

9. Надежин Н.Н. Специальные правовые режимы и пределы ограничения имущественных и предпринимательских прав: конституционно-правовой анализ // Конституционное и муниципальное право. – 2026. – № 6. – С. 33–36. – DOI: 10.18572/1812-3767-2026-6-33-36

10. Eucken W. Grundsätze der Wirtschaftspolitik. – Bern; Tübingen: Francke; Mohr (Siebeck), 1952. – 396 S.

11. Klump R., Wörsdörfer M. Über die normativen Implikationen des Ordoliberalismus für die moderne Wirtschaftsethik // Zeitschrift für Wirtschafts- und Unternehmensethik. – 2009. – Jg. 10, H. 3. – S. 322–340

12. Alexy R. A Theory of Constitutional Rights / transl. by J. Rivers. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 462 p.

13. Barak A. Proportionality: Constitutional Rights and their Limitations. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 611 p. – DOI: 10.1017/CBO9781139035293

14. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri 2012-yil 2-maydagi O‘RQ-328-son Qonun bilan tasdiqlangan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/2006789

15. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi O‘RQ-440-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/3321352

16. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1181-son Konstitutsiyaviy qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-184-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/7231780

18. BVerfG, Urteil vom 11. Juni 1958 – 1 BvR 596/56 (Apotheken-Urteil) // BVerfGE 7, 377. – URL: https://www.servat.unibe.ch/dfr/bv007377.html